



## TOG` MINTAQASINING DORIVOR O`SIMLIKLARI.

**Abdurazzakova Maftuna G`ayrat qizi**

*Chirchiq davlat pedagogika universiteti 2-kurs magistranti*

*[maftunaabdurazzoqova507@gmail.com](mailto:maftunaabdurazzoqova507@gmail.com)*

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada dorivor o`simliklarning tog` mintaqasining turli balandliklarida tarqalishi hamda ulardan tabobatda foydalanilishi, dorivor o`simliklarning kimyoviy tarkibi, ishlatilishi boshqa xususiyatlari haqida keng yoritilib berilgan. Shuningdek, dorivor o`simliklarning inson hayotidagi tutgan o`rni haqida ham ma`lumotlar aytib o`tilgan.

**Kalit so`zlar:** Qizil kitob, adir, tog`, dorivor o`simlik, farmasevtika.

Tog` mintaqasi dengiz sathidan 1200 m dan 2500 m gacha bo`lgan hududni egallaydi. Bu balandlik mintaqasi adir mintaqasidan salqin va nam qishi sovuq yozi iliqligi bilan ajralib turadi. Bu balandlik mintaqasi relyefi notekisligi uchun o`simliklar bir tekis tarqalmagan. Shunga qaramasdan, o`simlik dunyosi vakillari ko`pchilikni tashkil etadi.

***Tog` mintaqasining dorivor o`simliklarining tarqalishi va xususiyatlari***

**1-jadval**

T/r	O`simlikning nomi	Geografi k tarqalishi	Qo`llaniladigan qismi	Kimyoviy tarkibi	Ishlatilishi
1.	Oddiy anor	Yovvoyi anor O`zbekistonda uchraydi. Markaziy Osiyoda madaniy holda ko`plab yetishtiriladi, sovuqdan saqlash maqsadida qishda ko`miladi.	Tibbiyotda ushbu o`simlikning poyasi, shoxi, ildiz po`stlog`i hamda mevasi ishlatiladi.	Yovvoyi anor po`stlog`i tarkibida 0,25% alkaloidlar(pelterin, izopelterin va boshqalar), smola, botulin kislotasi, oshlovchi va boshqa moddalar, meva po`stida-28% gacha oshlovchi modda, ursol kislotasi, yeyiladigan qismida qandlar, limon, olma kislotalar va S vitamini bor.	Anor po`stlog`i preparatlari(qaynatmasi va pelterin alkaloidi tuzlari) organizmdan lentasimon gijjalarni haydash uchun, meva po`sti qaynatmasi- ich ketishda va yaralarni davolashda qo`llaniladi. Ibn Sino anor po`sti qaynatmasi bilan qon tupurish, milk qonashi va me`da kasalliklarini davolagan. Shuningdek, og`izni chayish uchun ham qo`llaniladi.
2.	Oddiy bodom	Achchiq danakli bodom yovvoyi holda Markaziy	Xalq tabobatida urug`i va uning moyi ishlatiladi.	Urug`i tarkibida 45-62% moy, 20% oqsil, 2-3% saxaroza,	Bodom moyi va uning emulsiyasi ich yumshatuvchi dori sifatida,



		Osiyo, Ozarbayjon va Armaniston tog'laridagi toshli va mayda shag'alli qiyaliklarda, dengiz sathidan 800-1000 m balandliklarda o'sadi.	Achchiq va chuchuk danakli bodom Markaziy Osiyo, Kavkaz va Qrimda ko'p o'stiriladi.	vitamin B, fermentlar va boshqa birikmalar, achchiq danakli bodom urug'ida esa bunga qo'shimcha 2,2-4%, ba'zan 8% gacha amigdalin glikozidi bor.	farmatsevtikada ba'zi dori moddalar (kamfora, gormonlar va boshqalar)ni eritish va surtmalar tayyorlashda qo'llaniladi. Shirin bodom urug'idan tayyorlangan emulsiya va achchiq bodom urug'ining kunjarasidan tayyorlangan achchiq bodom suvi me'da va ichak og'riqlarida og'riq qoldiruvchi va tinchlantiruvchi vosita sifatida ishlatiladi.
3.	Malina	Malina Kavkaz, Markaziy Osiyo va Sibir o'rmonlarida, o'rmon chetlarida, jarlarda, tog'larda, ariq bo'ylarida, o'rmon ostida, butalar orasida va boshqa nam yerlarda o'sadi.	Malina mevasi tibbiyotda ishlatiladi. Uni to'liq pishgan vaqtida qo'lda ehtiyotlik bilan terib olinadi, quyoshda so'litib, so'ngra quruq va issiq joyda yoki quritgichlarda quritiladi yoki murabbo qilib qo'yish mumkin.	Meva tarkibida organik (2,2% gacha olma, limon, salitsil, vino va boshqa kislotalar), 10% gacha qand, kaliy tuzlari, 45 mg% gacha S,V va R vitaminlari, karotin, pektin, oshlovchi va boshqa biologik faol moddalar bor.	Malinani dori preparatlari- meva damlamasi, sharbati va mevasi terlatuvchi vosita sifatida qo'llaniladi. Meva sharbatidan farmatsevtikada suyuq dorilarning ta'mini yaxshilash uchun foydalaniladi. Malina bargidan tayyorlangan damlama va qaynatma ich ketishni davolash, yo'tal va anginada tomoqni chayish uchun ishlatiladi.
4.	Oddiy chetan	Chetan turlari MDH ning Yevropa qismida o'rmon-cho'l zonasida hamda Kavkazda ninabargli va aralash o'rmonlarda, o'rmon chetlarida	Tibbiyotda chetanning mevasi ishlatiladi. Mevasi pishganda (sovuq tushgandan keyin) yig'ib olinadi, quritgichlarda quritiladi yoki quritilmay qo'llaniladi. Sovuq tushganda mevasi	Oddiy chetan mevasi tarkibida 160 (40-200) mg% S vitamini va R vitamini, 18 mg% karotin, 8% gacha organik (limon, olma, vino) kislotalar, qandlar (glyukoza, fruktoza, saxaroza),	Chetan mevasi va uning damlamasi avitaminoz kasalliklarini davolash va ularning oldini olish uchun qo'llaniladi. Mevasi vitaminli choylar-yig'malar tarkibiga kiradi. Chetan mevasi xalq tabobatida ishtaxa ochuvchi dori sifatida hamda singa



		o`sadi. O`zbekiston florasida 2 chetan turi-Turkiston va Tyanshan chetani tog`li hududlarda tarqalgan.	yoqimli, achchiq-nordon mazaga ega bo`lib qoladi.	flavonoidlar (kversitrin, izokversitrin, rutin va boshqalar), efir moyi, sorbit, oshlovchi va boshqa moddalar mavjud. Urug`ida amygdalin glikozidi va 22% gacha yog` bor.	kasalligini davolash va oldini olish uchun qadimdan qo`llanilib kelingan.
5.	Tog`olcha	Tog`olcha MDHning Yevropa qismi, Kavkaz, Markaziy Osiyo, Qozog`iston, Sibir va Uzoq Sharqda bog`larda mevali daraxt sifatida ko`plab o`stiriladi.	Xalq tabobatida tog`olchani mevasi ishlatiladi. Uni mevasi pishgan vaqtida terib olinadi va quyoshda quritiladi yoki quritilmasdan ishlatiladi.	Mevasi tarkibida 36-17,2% qandlar, 0,59-1,6% organik(olma, limon, oksalat, xin va boshqa kislotalar), 10 mg%S, V, E, RR va R vitaminlar, karotin, biotin, flavonoidlar (kversetin, izokversitrin va boshqalar), antotsianlar, pektin, oshlovchi, mineral va boshqa moddalar bor.	Tog`olchani Ibn Sino ham surgi (ko`proq quritilmagan holda) va o`t haydovchi vosita sifatida qo`llagan. Uning fikricha, nordonroq tog`olcha o`tni kuchliroq haydaydi, surgi ta`siri esa shirinida kuchliroq. Ibn Sino tog`olcha daraxtining tanasi va shoxlaridan olinadigan yelimi yaralarni davolashda, unga sirka, asal yoki shakar qo`shib temiratkiga qarshi ishlatgan.
6.	Oddiy o`rik	Markaziy Osiyoning tog`li hududlarida 500-2000 m gacha bo`lgan balandliklarida yovvoyi holda o`sadi. Markaziy Osiyo, Kavkaz, Afg`oniston, Eron, Turkiya va O`rta yer dengizi atroflaridagi	O`rikning mag`zidan olinadigan moyi va daraxtidan olinadigan yelimi tibbiyotda ishlatiladi.	Mevasining seret qismida 27% gacha qand, 2,5% organik kislotalar (olma, limon kislota), karotin, S va RR vitamini, flavonoidlar, pektin, mineral, oshlovchi moddalar, mag`zida 30-50% yog`, emulsion fermenti bor. O`rikning achchiq danakli navlarida	O`rik moyi ba`zi dori moddalar-kamfora, gormonlar va boshqalar tayyorlashda, daraxtining yelimi yog`li emulsiyalar tayyorlashda emulgator sifatida arab yelimi o`rnida, achchiq danakli o`rik mag`zi esa achchiq bodom suvi tayyorlashda ishlatiladi. O`rik yelimi arab yelimi singari



		mamlakatlarid a madaniy o`simlik sifatida keng miqyosda o`stiriladi.		8,43% gacha amygdalin glikozidi bo`ladi.	arabdan iborat bo`lib, suvda yaxshi eriydi. Xalq tabobatida o`rikning quritilgan mevasi (turshagi) ishlatiladi, u kaliyga boy bo`lib yurak-qon tomir kasalliklariga tavsiya etiladi.
7.	Tog` rayhoni	Mayda gulli tog` rayxon O`zbekiston, Tojikiston, Qirg`iziston va Qozog`istonning janubiy hududlaridagi tog`larning pastki va o`rta qismidagi mayda toshli qiyaliklarda o`sadi.	Tog` rayxon turlari Yasnotkadoshlar oilasiga mansub ko`p yillik o`t o`simliklar hisoblanadi. Tibbiyotda oddiy tog` rayxoni va mayda gulli tog` rayxoni yer ustki qismidan tayyorlangan xomashyosidan foydalaniladi.	Mayda gulli rayxonini tarkibida efir moyi, triterpen kislotalar, kumarinlar, flavonoidlar va boshqa moddalar bor. Tog` rayxoni tarkibida efir moyi, S vitamini, triterpin kislotalar, oshlovchi va boshqa biologik faol moddalar bor.	Har ikkila turning yer ustki qismi damlama hoida va turli choylar yig`malar tarkibida hamda oddiy tog` rayxonning yer ustki qismining suyuq ekstrakti nafas yo`llari kasalliklarida balg`am ko`chiruvchi vosita sifatida, ichak yurishi zaiflashganda, ishtaxa ochish, ovqat hazm qilishni yaxshilash, siydik haydash uchun qo`llaniladi.
8.	Doriv or ukropi	Dorivor ukrop madaniy holda Ukrainaning janubi-g`arbiy hududlarida, Rossiyaning Krasnodar o`lkasi, ShimoliyKavkaz va Markaziy Osiyoning ko`pgina mintaqalarida, shu jumladan, O`zbekistonda dorivor xomashyosi olish uchun o`stiriladi.	Ukropning mevasi va undan olinadigan efir moyi tibbiyotda ishlatiladi. O`simlik mevasining 60-90% i yetilgandan so`ng o`rib olinadi, bog`-bog` qilib bog`lab, xom mevalari pishishi va o`simlik qurishi uchun poyasining mevali qismini yuqoriga qaratib, xirmonga to`plab qo`yiladi.	Meva tarkibida 3-6,5% efir moyi, 20% gacha yog`, oqsil va boshqa biologik faol moddalar bor. Efir moyi 50-60% anetol, 10-20% fenxon ketone, 10% metilxavikol va boshqa terpenoidlardan tashkil topgan.	Mevasidan olingan efir moyi va undan tayyorlangan ukrop suvi yuqori nafas yallig`langanda va shamollaganda balg`am ko`chiruvchi, ich yumshatuvchi hamda yel haydovchi vosita sifatida dipressiyada qo`llaniladi.
9.	Jag`- jag`	Bu o`simlik juda keng tarqalgan	Tibbiyotda o`simlikning yer ustki qismi	Jag`-jag`ning yer ustki qismi tarkibida gissopin	Dori preparatlari (damlama, suyuq ekstrakta) qon



		tur hisoblanadi. Uzoq shimol va cho'l zonalardan tashqari, barcha mintaqalarda o'tloqlarda, yo'l chekkalarida, aholi	gullaguncha tayyorlanadi va ishlatiladi. O'simlik gullashi va mevasi yetilishi davrida uni ildizi bilan sug'urib olinadi va ildizini qirqib tashlab, salqin joyda quritiladi.	glikozidi, burso kislotasi, 0,12% S va K vitaminlari, flavonoidlar, organik (olma, limon, vino va boshqa) kislotalar, xolin, atsetilxolin, inozit, saponinlar, oshlovchi va boshqa faol moddalar bor.	to'xtatish uchun qo'llaniladi. Jag'- jag' qadimdan xalq tabobatida foydalanilib kelinayotgan dorivor o'simlik hisoblanadi. Undan tayyorlangan damlama, asosan, qon to'xtatuvchi vosita sifatida hamda, jigar kasalliklarini davolashda qo'llaniladi.
10	Isiriq	MDH Yevropa qismining janubiy hududlarida, Markaziy Osiyo, Qozog'iston va Kavkazdagi cho'llarda, adirlarda, o'tloqlarda, tog'larning quyi qismida, qumloq, toshloq, tuproqli joylarda, dala va ekinzorlarda begona o't sifatida o'sadi.	Isiriq Qushyaproqdoshlar oilasiga mansub bo'lib, bo'yi 20-60 sm bo'lgan o't o'simlik. Poyasi bir nechta, sershox barglari oddiy, 4-5 bo'lakka (bo'laklari chiziqsimon-nishtarsimon) patsimon ajralgan. Xalq tabobatida isiriqning yer ustki qismi qo'llaniladi.	Isiriqning tarkibida 1,5-3% (ildizida 2,15-2,70% urug'ida 3,5-6%) garmin, peganin (vazitsin), garman, dezoksipeganin va boshqa alkaloidlar bor. Garmin alkaloidining xloridrat tuzi ensefalit kasalligining asoratini, tutqanoq, qaltiroq va Parkinson kasalliklarini davolashda qo'llanilgan.	Dezoksipeganin gidroxloridning ampuladagi eritmasi miasteniya, miopatiya va boshqa muskal kasalliklarini hamda asab kasalliklari nevrin, mononevrin, polinevrin kabilarda ishlatiladi. Gripp kasalligi avj olgan paytlarda isiriqni tutatib bemor yotgan xonani dezinfeksiya qilish yaxshi natija beradi.

Jadval: Muallif tomonidan "O'rmon dorivor o'simliklari" kitobi asosida tuzilgan.

Xulosa qilib yuqoridagi jadvalda tog' mintaqasining dorivor o'simliklari haqida ma'lumotlar keltirib o'tilgan. Tog' mintaqasining dorivor o'simliklarining tarqalgan obyektlari, qo'llaniladigan qismi, kimyoviy xossalari bilan tibbiyotda ishlatilishi keltirib o'tilgan.

Tog' mintaqasining dorivor o'simliklari o'zining faol moddalarga boyligi bilan boshqa mintaqalardan ajralib turadi. Ularni ekilishi ularga ishlov berilishi maxsus ilmiy-tajriba institutlarida, ilmiy-tadqiqot stansiyalarida, ta'lim muassasalarida, universitetlarda, milliy bog'larda hamda fanlar akademiyalarida olib borilmoqda. Bu hududlarda nafaqat O'zbekiston Respublikasi hududidagi dorivor o'simliklar chet el



mamlakatlaridan issiq iqlim mintaqalaridan kelgan o'simliklarni o'stirish ishlari olib borilmoqda.

Dorivor o'simliklar asosan ishlov berilgan yerlarda o'stirilgan o'simliklar yovvoyi holda o'sayotgan o'simliklardan farqlanadi. Bu farqlarni asosiysi yovvoyi holda tarqalgan zararli o'simliklardan himoyalangan bo'ladi. Maxsus texnikalar yordamida o'sayotgan dorivor o'simliklarda inson salomatligiga yaxshi ta'sir qiluvchi mikroelementlar yetarlicha hisoblanadi.

Dorivor o'simliklarni o'stirishdan yana bir maqsad ularni navlarini ko'paytirish ko'p yillik hosil beruvchi dorivor o'simliklarning turkumlarini barpo etish hamda boshqa dorivor o'simliklar bilan birlashtirib yangi turlarni olish, yangi navlarni olish bilan o'simlik tarkibidagi faol moddalarni ko'paytirish tarkibidagi zararli moddalarni kamaytirish ishlari olib borilmoqda.

Dorivor o'simliklar ishlov berilgan tuproqlarda o'stirilganda yovvoyi holda o'sayotgan o'simliklardan ko'ra yig'ib olish arzonga tushadi hamda foydali bo'ladi.

Dorivor o'simliklar O'zbekiston Respublikasi hududining maxsus joyi Qishloq va suv xo'jaligi vazirligiga tegishli tashkilotlarda ekiladi.

Dorivor o'simliklarni tarixini o'rganadigan bo'lsak, O'zbekiston Respublikasining Bo'stonliq tumanidagi tashkilotlarda birinchi bo'lib, 1973-yilda ekilgan. Keyingi yillarga kelib esa ya'ni 1978-yilda Namangan viloyatining Pop tumaniga qarashli Ibn Sino nomidagi dorivor o'simliklar yetishtiriladigan tashkilot yaratilgan. Bu tashkilot o'z tarkibiga dastlab quyidagi dorivor o'simliklarni kiritgan: yalpiz, tirnoqgul, marmarak, itizum, rayxon va boshqa o'simliklar. Birinchi marta O'zbekiston Respublikasida Namangan viloyatidagi Ibn Sino tashkilotidagi dorivor o'simliklar yig'ilib Qozog'iston Respublikasidagi Chimkent shahridagi dorixonalarga hamda kimyo-farmasevtika zavodiga yetkazib berildi.

Bugungi kunga kelib esa dorivor o'simliklar O'zbekiston Respublikasining boshqa viloyatlarida ham ekila boshladi. Bular quyidagi viloyatlar: Buxoro, Surxondaryo, Toshkent viloyati, Samarqand. Aynan shu viloyatlarda dorivor o'simliklarga maxsus tashkilotlar tashkil etilgan.

Keyingi yillarga kelib esa O'zbekiston Respublikasining hamma viloyatlarida "Farmasevtika" ishlab chiqarish korxonasi tegishli tashkilotlarda tashkil etilib, u yerda dorivor o'simliklarni yetishtirish maydonchalarida ekilmoqda.

O'zbekiston Respublikasining Toshkent viloyatiga tegishli Quyi Chirchiq tumanida 2000-yillardan keyin Oxunboboyev nomli dorivor o'simliklarni yetishtirish xo'jaligi tashkil etildi. Bu xo'jalikda bir qancha dorivor o'simliklar yetishtirilmoqda. Bularga quyidagilar kiradi: dorivor tirnoqgul, na'matak, dorivor moychechak, dorivor marmarak va boshqa dorivor o'simliklar.

Yuqorida aytib o'tganimizdek dorivor o'simliklarlar tashkil etilgan maxsus tashkilotlardan biri fanlar akademiyasiga qarashli Toshkent botanika bog'ining ilmiy hodimlari, sobiq ilmiy rahbar Q.X. Xo'jayev tomonidan O'zbekiston iqlimiga moslashgan dorivor o'simliklarning 67 turi Toshkent shaxrida o'stirilib kelinmoqda.



Ular o`stirayotgan dorivor o`simliklar quyidagilar: belladonna, bangidevona, na`matak, dastorbosh, arslonquyruq, tirnoqgul, ituzum va boshqalar.

Bugungi kunga kelib dorivor o`simliklar tashqi ta`sirlar ya`ni inson ta`siri natijasida ham kamayib ketmoqda. Bu esa ularni sonini kamayishiga sabab bo`lmoqda. Shuning uchun dorivor o`simliklarni O`zbekiston Respublikasini iqlim sharoitiga mos keladigan dorivor o`simliklarni sug`orma dehqonchilik olib boriladigan xo`jaliklarda olib borib ekish maqsadga muvofiq. Hamda maxsus tashkil etilgan dorivor o`simliklarning xo`jaliklari favmasevtika sanoatini rivojalantirishga o`z hissasini fermer va fermer xo`jaliklari orqali yetkazib berish ishlarini olib borishlari lozim.

O`zbekiston Respublikasi hududi bir qancha iqlim mintaqalariga ajratilganligi bois hayvonot va o`simlik dunyosi vakillari ko`pchilikni tashkil etadi. Bu esa mamlakatimiz hududida tarqalgan dorivor o`simliklar bir qancha kasalliklarni oldini olishga qaratilgan dori mahsulotlarini yaratishga imkon yaratadi. Lekin o`simlik dunyosi qancha ko`p bo`lmasin yildan-yilga iqlim o`zgarishi hamda tashqi ta`sirlarning yuqorili bois ularni soni kamayib boryapti. Buni oldini olish uchun o`zi tabiiy ravishda o`sadigan dorivor o`simliklarni maqsadli ravishda tog`ri yo`nalish orqali foydalanish lozim.

O`zbekiston Respublikasidagi dorivor o`simliklarni har xil xav-hatarlardan saqlash uchun ularni muhofaza qilish foydali qilib ishlatish uchun O`zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasiga tegishli bir qancha qonun va qarorlar ishlab chiqarildi. Bu qarorlar quyidagilar: "Tabiat muhofazasini kuchaytirish va tabiiy resurslardan foydalanishni yaxshilash to`g`risida" 1972-yil dekabrda, "O`rmonlar muhofazasini va o`rmon resurslaridan foydalanishni yaxshilash borasida" 1977-yildagi qarorlar.

O`zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasida atrof-muhitni, tabiatni, tabiat boyliklarini ya`ni yer osti va yer usti suvlari, tuproq, iqlim, foydali qazilmalardan to`g`ri yo`nalishda foydalanish lozimligi belgilab qo`yilgan.

O`zbekiston Respublikasining "Qizil kitobi" akademiklar Y.M. Lavrenko va A. L. Taxtadjanlar tomonidan tuzilgan. Bu kitobda kamyob, yo`qolib ketayotgan va yo`qolib ketgan dorivor o`simliklar haqida batafsil ma`lumotlar keltirilgan. Bunday ma`lumotlarga dorivor o`simliklarning tabiiy muhit sharoitida qanday o`sishi, ularni qanday tarqalganligi hamda ularni saqlab qolish uchun muhofaza qilish choralari keltirib o`tilgan.

O`zbekiston Respublikasining "Qizil kitobi"ga 163ta o`simlik kiritilgan bo`lib ularning 20 tadan oshig`i dorivor o`simliklar hisoblanadi. Bu dorivor o`simliklarni homashyosidan har xil maqsadlarda foydalanish taqiqlanadi.

O`zbekiston Respublikasining "Qizil kitobiga kiritilgan dorivor o`simliklar quyidagilar hisoblanadi:

- 1)Anor;
- 2)Anjir;





3) Solab turlari;

4) Tilla rang Adonis;

5) Bozulbang;

6) Etmak;

7) Viktor qoraqabug'i va boshqalar.

Dorivor o'simliklarni muhofaza qilish uchun O'zbekiston Respublikasida milliy bog'lar, qo'riqxonalar va buyurtma xonalar yildan-yilga barpo etib kelinmoqda.

Dorivor o'simliklar O'zbekiston Respublikasida tibbiyotda 38-40% qismigina foydalaniladi. Foydalanilayotgan dorivor o'simliklardan dorivor preparatlar tayyorlanadi. Bu dorivor preparatlar og'ir kasallikka uchragan bemorlar uchun ishlatilib kelinmoqda. O'simlik preparatlari tarkibida quyidagi dorivor birikmalar uchraydi: alkaloidlar, terpenlar, fenolli birikmalar, saponinlar, glikozid va boshqa faol moddalar bor. Bu moddalarni mustaqilligimizni boshlarida olish qiyin hisoblanardi ya'ni ularni o'simlikni ekib olib mumkin edi maxsus biologik elementlarni alohida olish usullari ishlab chiqilmagan edi. Hozirgi kunga kelib esa bu yo'nalishda ishlar olib borilmoqda.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Jo'rayeva M.A. Dorivor o'simliklar atlas. - T.: Noshir, 2019.

2. E.T. Berdiyev, M.X. Hakimova, G.B. Maxmudova. O'rmon dorivor o'simliklari. - T.: Sano-standart nashriyoti, 2016.